

HUDUDLARNING IJTIMOYIY TABAQALASHUV TENDENTSIYALARINI BAHOLASH YO‘NALISHLARINI ANIQLASHGA ILMIY YONDASHUVLAR

Sobirov Azizbek Avazbekovich

TDIU, “Marketing” kafedrası PhD., dotsent

ORCID:0009-0006-5886-3783

E-mail: a.sobirov@tsue.uz

Аннотация

Mazkur maqolada hududiy ijtimoiy tabaqalashuvni baholashning ikki darajali kompozit indeks tizimi ishlab chiqildi. Tadqiqotda kompozit indekslar nazariyasi, tengsizlikni o‘lchash metodlari va xalqaro statistik yondashuvlar tahlil qilindi. Hududiy ijtimoiy holatni ifodalovchi HITHI hamda mamlakat miqyosidagi tengsizlikni ifodalovchi ITI indeksleri integratsiyalashgan model asosida hisoblandi. Hisoblash jarayonida robust normalizatsiya, geometrik agregatsiya va dispersion indikatorlardan foydalanildi. O‘zbekistonning 14 hududi bo‘yicha 2010–2024 yillar ma’lumotlari asosida empirik baholash amalga oshirildi. Natijalar hududlar bo‘yicha ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari oshganini hamda hududlararo tafovutlarning bosqichma-bosqich kamayganini ko‘rsatdi. Taklif etilgan tizim hududiy siyosat, strategik rejalashtirish va statistik monitoring uchun amaliy metodologik instrument sifatida tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar: hududiy tabaqalashuv, kompozit indeks, ijtimoiy tengsizlik, HITHI, ITI, robust normalizatsiya, geometrik agregatsiya, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В статье разработана двухуровневая система композитных индексов для оценки территориальной социальной стратификации. В исследовании проанализированы теория композитных индексов, методы измерения неравенства и международные статистические подходы. Индексы HITHI, отражающие региональное социальное состояние, и ITI, характеризующий национальное неравенство, были рассчитаны на основе интегрированной модели. В процессе расчётов использовались методы робастной нормализации, геометрической агрегации и дисперсионные показатели. Эмпирическая оценка выполнена по данным 14 регионов Узбекистана за 2010–2024 годы. Результаты показали рост показателей социального развития регионов и постепенное сокращение межрегиональных различий. Предложенная система рекомендована как практический методологический инструмент для региональной политики, стратегического планирования и статистического мониторинга.

Ключевые слова: территориальная стратификация, композитный индекс, социальное неравенство, HITHI, ITI, робастная нормализация, геометрическая агрегация, региональное развитие.

Abstract

This article developed a two-level composite index system for assessing regional social stratification. The study analyzed composite index theory, inequality

measurement methods, and international statistical approaches. HITHI indices representing regional social conditions and the ITI index reflecting national inequality were calculated using an integrated model. The methodology applied robust normalization, geometric aggregation, and dispersion indicators. An empirical assessment was conducted using data from 14 regions of Uzbekistan covering the period 2010–2024. The findings demonstrated an increase in regional social development indicators and a gradual reduction in interregional disparities. The proposed system was recommended as a practical methodological instrument for regional policy, strategic planning, and statistical monitoring.

Keywords: regional stratification, composite index, social inequality, HITHI, ITI, robust normalization, geometric aggregation, regional development.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) hududlararo tafovutlarni kamaytirishni global rivojlanish siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgiladi [1]. Shu asosda Oʻzbekiston Respublikasi ham 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “Oʻzbekiston–2030” strategiyasida 100 ta maqsadni oʻz ichiga olgan 5 ta ustuvor yoʻnalish doirasida hududiy farovonlikni taʼminlashni davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgiladi [2]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi 83-son qarori bilan 16 ta milliy Barqaror rivojlanish maqsadi va 125 ta vazifa tasdiqlanib, hududiy rivojlanishni monitoring qilishning statistik asoslari shakllantirildi [3]. Soʻnggi UNDP Inson taraqqiyoti hisobotiga koʻra, Oʻzbekiston 193 davlat orasida 107-oʻrinni egallagan boʻlib, HDI koʻrsatkichi 0,740 ni tashkil etgan [4].

Hududlararo va hudud ichidagi ijtimoiy tabaqalashuvni baholashda kompozit indekslar metodologiyasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kompozit indeksning ishonchliliigi va ilmiy asoslanganligi, avvalo, uning tarkibiga kiritilgan yoʻnalishlarning toʻgʻri tanlanishiga bogʻliq. OECD-JRC tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro qoʻllanmada indikatorlarni tanlashda nazariy asoslanganlik, statistik mavjudlik hamda siyosiy ahamiyat mezonlarini birgalikda hisobga olish tavsiya etiladi [5]. Ijtimoiy tadqiqotlar metodologiyasida esa triangulyatsiya prinsipi bir hodisani bir nechta mustaqil manba asosida baholash imkonini beruvchi ishonchli yondashuv sifatida eʼtirof etilgan [6].

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy muammosi quyidagicha ifodalanadi: Oʻzbekistonning 14 hududi kesimida ijtimoiy tabaqalashuvni baholash uchun koʻp oʻlchovli kompozit indeks yoʻnalishlarini qaysi metodologik mezonlar asosida tanlash mumkin? Amaldagi xalqaro yondashuvlar koʻpincha faqat bitta manbaga — masalan, OECD yoki UNDP metodologiyasiga tayanadi va milliy strategik xususiyatlarni toʻliq aks ettirmaydi. Bunday yondashuv rivojlanayotgan davlatlar, jumladan Oʻzbekiston sharoitida ayrim cheklovlarga ega.

Birinchidan, mahalliy statistik bazaning xususiyatlari va maʼlumotlar yetishmovchiligi xalqaro metodologiyalar bilan toʻliq mos kelmasligi mumkin. Ikkinchidan, kambagʻallikni qisqartirish, mahalla tizimini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot kabi milliy ustuvor yoʻnalishlar xalqaro indekslarda mustaqil oʻlchov

sifatida yetarli darajada aks ettirilmagan. Uchinchidan, ilmiy nazariya, xalqaro standartlar va milliy strategik maqsadlar o'rtasidagi muvozanatni aniq metodologik yondashuv asosida ta'minlash zarur.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida ushbu maqolada Triangulyatsion Konvergensiya Indeksi (TCI) modeli taklif etiladi. Tadqiqotning maqsadi — nazariy yondashuvlar, xalqaro indekslar va milliy strategik hujjatlar konvergensiyasiga asoslangan holda Hududlarning Ijtimoiy Tabaqalashuv Holati Indeksi (HITHI) yo'nalishlarini tanlashning ilmiy asoslangan, miqdoriy va shaffof metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. triangulyatsion konvergensiya prinsipining matematik apparatini ishlab chiqish;
2. sakkizta potensial yo'nalish bo'yicha uch manbaning konvergensiyasini hisoblash;
3. yo'nalishlarni indeks tarkibiga kiritish mezonlarini empirik asoslash;
4. modelning og'irlik koeffitsiyentlariga sezgirligini tahlil qilish.

Maqolaning ilmiy yangiligi triangulyatsiya prinsipini kompozit indekslarni shakllantirish jarayonida miqdoriy binar matritsalar asosida formallashtirish hamda siyosiy-strategik konvergensiya manbasini metodologiyaga tizimli ravishda integratsiya qilishdan iborat. Taklif etilgan yondashuv O'zbekiston sharoitida birinchi marta qo'llanilmoqda va uni boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ham hududiy ijtimoiy tabaqalashuvni baholashda qo'llash imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tabaqalashuvning klassik nazariyalari

Ijtimoiy tabaqalashuv tahlilining nazariy asoslari XIX asrda K. Marks tomonidan ishlab chiqilgan sinfiy bo'linish nazariyasidan boshlanadi [7]. Marks ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish asosida jamiyatni asosiy sinflarga bo'lishni ilmiy asoslab bergan. M. Veber esa tabaqalashuvni ko'p o'lchovli hodisa sifatida tushunib, sinf (iqtisodiy holat), status (ijtimoiy nufuz) va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni tahlil qilgan [8]. Veberning bu uch o'lchovli yondashuvi zamonaviy stratifikatsiya tadqiqotlarining metodologik tayanchini tashkil etadi.

XX asr ikkinchi yarmida E.O. Wright [9] zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlarini hisobga olgan holda Marks-Veber sintezi asosida postindustrial sinflarning analitik klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. R. Erikson va J.H. Goldthorpe [10] tomonidan tuzilgan EGP (Erikson-Goldthorpe-Portocarero) klassi tahlili xalqaro qiyoslar uchun standartlashgan operatsional asbob bo'lib qoldi. G. Standing [11] esa zamonaviy mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olib, "prekariat" - nostandart bandlik sharoitidagi yangi ijtimoiy guruh tushunchasini kiritdi.

Tengsizlik dinamikasini izohlovchi eng ta'sirli zamonaviy ish T. Piketning "Kapital XXI asrda" tadqiqoti hisoblanadi [12]. Piketty 20 davlat bo'yicha 200 yillik ma'lumotlarni tahlil qilib, kapital daromadi (r) iqtisodiy o'sish darajasidan (g) yuqori bo'lganda boylik konsentratsiyasi avtomatik kuchayadi degan asosiy gipotezani

isbotladi ($r > g$). Bu yondashuv hozirgi kunda hududlararo daromad tafovutlari tahlilida muhim metodologik asosga aylangan.

Kambag'allik va deprivatsiya nazariyalari

A. Sen tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyatlar yondashuvi (capabilities approach) farovonlikni faqat daromad orqali emas, balki insonning o'z hayotini tanlash erkinligi va imkoniyatlari asosida baholashni taklif etadi [13]. Sen yondashuvi BMTning Inson Taraqqiyoti Indeksining (HDI) konseptual asosi bo'lib xizmat qildi va M. ul-Haq [14] tomonidan operatsional uch o'lchovli (sog'liq, ta'lim, daromad) modelga aylantirildi.

P. Townsend kambag'allikni nisbiy deprivation (mahrumlik) tushunchasi orqali izohlab, kambag'allik chizig'ini absolyut emas, balki jamiyatdagi standart hayot darajasidan kelib chiqib aniqlashni taklif qildi [15]. Bu yondashuvni S. Alkire va J. Foster [16] empirik darajaga ko'tarib, Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi (Multidimensional Poverty Index, MPI) metodologiyasini ishlab chiqdilar. MPI bugungi kunda UNDP va OPHI tomonidan dunyo bo'yicha har yili hisoblanadi va xalqaro qiyoslama uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Madaniy kapital, ta'lim va sog'liqdagi tabaqalashuv

P. Bourdieu [17] iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kapitalning o'zaro almashinuvi nazariyasini ishlab chiqib, ta'lim tizimining tabaqalashuvni qayta ishlab chiqarish mexanizmlari haqida fundamental savol qo'ydi. J. Coleman esa ijtimoiy kapital tushunchasini o'quvchilar muvaffaqiyatining sotsial tarmoqlardan kelib chiqadigan resurslarga bog'liqligini empirik isbotlash orqali ilmiy asosga oldi [18].

Sog'liqdagi tabaqaviy tafovutlar bo'yicha M. Marmot [19] uzoq yillik tadqiqotlari natijasida "ijtimoiy gradient" fenomenini aniqladi: sog'liq darajasi nafaqat eng past kambag'al qatlamda, balki butun ijtimoiy iyerarxiya bo'ylab pasayib boradi. R. Wilkinson va K. Pickett [20] esa daromad tengsizligi va sog'liq ko'rsatkichlari o'rtasidagi mustahkam korrelyatsiyani 23 davlat bo'yicha empirik tasdiqladilar.

Avlodlararo mobillik va hududiy tafovutlar

Avlodlararo ijtimoiy mobillikni o'lchashda eng ta'sirli zamonaviy ish R. Chetty va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan Opportunity Atlas hisoblanadi [21]. Mualliflar 20 million amerikalikning soliq ma'lumotlari asosida har bir hudud (graflik) bo'yicha mobillikning kauzal effektini aniqladilar va bolalikda yashash hududi keyingi hayotdagi muvaffaqiyatga 60% kauzal ta'sir ko'rsatishini isbotladilar [22]. Bundan oldin G. Solon [23] avlodlararo daromad elastikligi (intergenerational earnings elasticity, IGE) ni nazariy va empirik asoslab bergan, M. Corak esa "Great Gatsby Curve" fenomenini aniqlab - tengsizlik yuqori bo'lgan jamiyatlarda mobillik darajasi past bo'lishini empirik isbotlagan [24].

Hududiy iqtisodiy geografiya va institutlar

P. Krugman tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi hududlararo tafovutlarning iqtisodiy mexanizmlarini aglomeratsiya, ko'chish xarajatlari va miqyos iqtisodiyoti orqali izohlaydi [25]. D. Acemoglu va J. Robinson [26] esa institutlarning iqtisodiy o'sish va tabaqalashuvga ta'sirini tarixiy-empirik tarzda tahlil qilib, inklyuziv institutlarning rivojlanish uchun zarurati haqidagi

kontsepsiyani ishlab chiqdilar. U. Beck [27] tomonidan kiritilgan “risk society” (xavf jamiyati) tushunchasi esa zamonaviy jamiyatlarda ekologik va texnologik xavflarning tabaqaviy taqsimlanishi muammolariga e’tibor qaratadi.

METODOLOGIYA

TCI modelining matematik apparati

Triangulyatsion Konvergensiya Indeksi (TCI) modeli har bir potensial yo‘nalish duchun uchta alohida konvergensiya ko‘rsatkichini hisoblash va ularni og‘irlikli yig‘indi asosida yakuniy indeksga birlashtirish tamoyiliga asoslanadi.

Birinchi komponent — nazariy konvergensiya ko‘rsatkichi:

$$T_d = \frac{1}{N_T} \sum_{j=1}^{N_T} \theta_{jd}, \theta_{jd} \in \{0,1\} \quad (1)$$

bu yerda:

- N_T — tahlilga jalb qilingan klassik va zamonaviy nazariy maktablar soni;
- θ_{jd} — j -nazariya d -yo‘nalishni qamrab olishini ifodalovchi binar baho.

Ikkinchi komponent — xalqaro indekslar konvergensiya:

$$I_d = \frac{1}{N_I} \sum_{k=1}^{N_I} \iota_{kd}, \iota_{kd} \in \{0,1\} \quad (2)$$

bu yerda:

- N_I — tahlilga jalb qilingan xalqaro kompozit indekslar soni;
- ι_{kd} — k -indeks d -yo‘nalishni o‘lchashini bildiruvchi binar indikator.

Uchinchi komponent — siyosiy-strategik konvergensiya:

$$P_d = \frac{1}{N_P} \sum_{m=1}^{N_P} \pi_{md}, \pi_{md} \in \{0,1\} \quad (3)$$

bu yerda:

- N_P — tahlilga jalb qilingan davlat strategik hujjatlari soni;
- π_{md} — m -hujjatda d -yo‘nalish mavjudligini bildiruvchi binar baho.

Yakuniy Triangulyatsion Konvergensiya Indeksi quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi:

$$TCI_d = w_T \cdot T_d + w_I \cdot I_d + w_P \cdot P_d, \sum w = 1 \quad (4)$$

bu yerda:

- w_T — nazariy asoslanganlik og‘irligi;
- w_I — xalqaro standartlarga muvofiqlik og‘irligi;
- w_P — milliy siyosiy moslik og‘irligi.

Mazkur tadqiqotda akademik ustuvorlik prinsipi asosida quyidagi og‘irliklar qabul qilindi:

$$w_T = 0.40, w_I = 0.35, w_P = 0.25$$

Bunda nazariy asoslanganlik ilmiy tadqiqotning konseptual yadrosi sifatida eng yuqori ulushni egallaydi, xalqaro standartlarga moslik ikkinchi ustuvor komponent sifatida baholanadi, milliy strategik moslik esa siyosiy-amaliy relevanti aks ettiradi. Mazkur og'irliklarning yakuniy natijalarga ta'siri sensitivlik tahlili asosida qo'shimcha tekshirildi.

Manbalarni tanlash mezonlari

Birinchi manba (nazariy maktablar) uchun tanlash mezonlari quyidagilar: (a) ijtimoiy tabaqalashuv nazariyasiga konseptual hissa qo'shgan; (b) xalqaro akademik adabiyotda kamida 100 dan ortiq sitat indeksiga ega; (v) zamonaviy empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos beradi. Mezonlar asosida 20 ta nazariy maktab yoki asoschi tanlandi.

Ikkinchi manba (xalqaro indekslar) uchun tanlash mezonlari:

a) yetakchi xalqaro tashkilot (BMT, OECD, EU) yoki universitet (Oxford, Harvard, Stanford) tomonidan ishlab chiqilgan;

b) muntazam ravishda yangilanadi va ko'plab davlatlarni qamrab oladi (≥ 100 davlat);

v) ochiq metodologiya va to'liq dokumentatsiyaga ega;

g) xalqaro akademik va siyosiy auditoriyada keng e'tirof etilgan.

Bu mezonlar asosida 7 ta indeks tanlandi: UNDP HDI, UNDP MPI, OECD Regional Well-being, EU Regional Competitiveness Index 2.0, EU Social Progress Index, UN-Habitat City Prosperity Index, Chetty Opportunity Atlas.

Uchinchi manba (davlat hujjatlari) uchun tanlash mezonlari: (a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni yoki Vazirlar Mahkamasi qarori darajasidagi normativ-huquqiy hujjat; (b) hozirgi vaqtda kuchda; (v) hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha strategik ahamiyatga ega; (g) lex.uz huquqiy bazasida rasman e'lon qilingan. Bu mezonlar asosida 6 ta tayanch hujjat tanlandi.

Kontent-tahlil va kodirovka jarayoni

Har uch manba bo'yicha tahlil K. Krippendorff [28] tomonidan ishlab chiqilgan kontent-tahlil metodologiyasi asosida amalga oshirildi. Binar kodirovka jarayoni quyidagi qadamlardan iborat:

1-qadam: har bir yo'nalish uchun aniq operatsional ta'rif tuzildi (masalan, "daromad va mulk tabaqalashuvi" - daromad, mulk va boylik taqsimotidagi tafovutlarni o'lchovchi indikatorlar).

2-qadam: har bir manba (nazariy maktab, xalqaro indeks, davlat hujjati) bo'yicha matniy tahlil o'tkazilib, mazkur manba u yoki bu yo'nalishni qamrab oladimi degan savolga 0 yoki 1 baho beriladi.

3-qadam: kodirovka shaffof codebook orqali hujjatlashirildi. Har bir 1 yoki 0 bahosi mos manbada qaysi konkret konsepsiya, indikator yoki maqsad bilan asoslanganligi qayd etiladi.

4-qadam: yakuniy matritsa qurilib, formulalar (1)-(4) bo'yicha hisoblar amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy konvergensiya tahlili (T_d)

Ijtimoiy tabaqalashuvning klassik va zamonaviy nazariy adabiyotlari tahlili 20 ta nufuzli maktab va asoschining 8 ta yo‘nalishga aloqasini binar matritsada aks ettirdi. 1-jadvalda yo‘nalishlar bo‘yicha xulosalar berilgan.

1-jadval.

Nazariy konvergensiya skorlari¹ (T_d), $N_T=20$

Yo‘nalish	Maktablar soni	T_d
1. Daromad va mulk tabaqalashuvi	8/20	0.400
2. Kambag‘allik va ijtimoiy mahrumlik	8/20	0.400
3. Mehnat va kasb bo‘yicha tabaqalashuv	5/20	0.250
4. Ta‘lim va madaniy kapital tabaqalashuvi	8/20	0.400
5. Aholi salomatligidagi tabaqaviy tafovutlar	5/20	0.250
6. Avlodlararo ijtimoiy mobillik	6/20	0.300
7. Hududiy infratuzilma va raqamli tabaqalashuv	4/20	0.200
8. Institutsional-siyosiy va ekologik tabaqalashuv	4/20	0.200

Eng yuqori nazariy konvergensiya 1, 2 va 4-yo‘nalishlar (har biri $T_d = 0.400$) ega. Bu mantiqiy: daromad, kambag‘allik va ta‘limning klassik nazariyalari (Marks, Veber, Sen, Bourdieu, Coleman) eng uzun tarixiy ildizga ega. Eng past konvergensiya 7 va 8-yo‘nalishlarda ($T_d = 0.200$) qayd etildi, chunki infrastruktura-raqamli va institutsional-ekologik yo‘nalishlar nisbatan zamonaviy konseptual qatlamlar bilan bog‘liq.

Xalqaro indekslar konvergensiya (I_d)

Ikkinchi triangulyatsion manba sifatida 7 ta yetakchi xalqaro kompozit indeks tanlandi va ularning yo‘nalishlarni qamrab olishi binar matritsada aks ettirildi. UNDP MPI [29], OECD Regional Well-being [30], EU Regional Competitiveness Index 2.0 [31], EU Social Progress Index [32], UN-Habitat City Prosperity Index [33] va Chetty Opportunity Atlas hududiy darajadagi taqqoslama uchun asosiy xalqaro standart vositalar hisoblanadi.

2-jadval.

Xalqaro indekslar konvergensiya skorlari² (I_d), $N_I=7$

Yo‘nalish	Indeks soni	I_d
1. Daromad va mulk tabaqalashuvi	5/7	0.714
2. Kambag‘allik va ijtimoiy mahrumlik	4/7	0.571
3. Mehnat va kasb bo‘yicha tabaqalashuv	4/7	0.571
4. Ta‘lim va madaniy kapital tabaqalashuvi	6/7	0.857
5. Aholi salomatligidagi tabaqaviy tafovutlar	6/7	0.857
6. Avlodlararo ijtimoiy mobillik	1/7	0.143
7. Hududiy infratuzilma va raqamli tabaqalashuv	6/7	0.857
8. Institutsional-siyosiy va ekologik tabaqalashuv	4/7	0.571

¹ Muallif tomonidan adabiy manbalar [7]-[27] asosida hisoblangan.

² Muallif tomonidan xalqaro institutsional manbalar [4], [21], [29]-[33] asosida hisoblangan

Eng yuqori xalqaro konvergensiya 4, 5 va 7-yoʻnalishlarda (har biri $I_d = 0.857$) qayd etildi. Bu shuni koʻrsatadiki, taʼlim, sogʻliq va infrastruktura oʻlchovlari xalqaro standartda eng keng tan olingan oʻlchovlardir. Eng past konvergensiya 6-yoʻnalish boʻyicha $I_d = 0.143$ - yaʼni avlodlararo mobillik faqat Chetty Opportunity Atlas tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri operatsionallashtirilgan, qolgan oltita indeksda alohida oʻlchov sifatida mavjud emas.

Milliy strategik konvergentsiya (P_d)

Uchinchi manba sifatida Oʻzbekiston Respublikasining 6 ta tayanch strategik hujjatlari tanlandi: 2023-yil 11-sentabr PF-158 “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi [2]; 2022-yil 28-yanvar PF-60 “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” [34]; 2024-yil 23-sentabr PF-143 “Kambagʻallikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish” dasturi [35]; 2020-yil 5-oktabr PF-6079 “Raqamli Oʻzbekiston-2030” strategiyasi [36]; 2018-yil 7-dekabr PF-5590 “Sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi 2019-2025” [37]; va 2022-yil 21-fevral VMQ-83 “Barqaror Rivojlanish Milliy Maqsadlari” 16 ta milliy maqsad va 125 ta vazifa [3].

3-jadval.

Milliy strategik konvergensiya skorlari¹ (P_d), $N_p = 6$

Yoʻnalish	Hujjatlar soni	P_d
1. Daromad va mulk tabaqalashuvi	4/6	0.667
2. Kambagʻallik va ijtimoiy mahrumlik	5/6	0.833
3. Mehnat va kasb boʻyicha tabaqalashuv	5/6	0.833
4. Taʼlim va madaniy kapital tabaqalashuvi	4/6	0.667
5. Aholi salomatligidagi tabaqaviy tafovutlar	5/6	0.833
6. Avlodlararo ijtimoiy mobillik	4/6	0.667
7. Hududiy infratuzilma va raqamli tabaqalashuv	6/6	1.000
8. Institutsional-siyosiy va ekologik tabaqalashuv	4/6	0.667

Eng yuqori milliy konvergensiya 7-yoʻnalish ($P_d = 1.000$) boʻyicha qayd etildi - barcha tahlilga jalb qilingan hujjatlar infrastruktura va raqamli rivojlanishni alohida ustuvor maqsad sifatida belgilagan. Eng quyi konvergensiya 1, 4, 6 va 8-yoʻnalishlarda ($P_d = 0.667$) boʻlib, bu hujjatlarning bu yoʻnalishlarni asosan PF-158, PF-60 va VMQ-83 ning kompleks tarkibi orqali qamrab olishini koʻrsatadi.

Yakuniy TCI hisobi

Uch manbaning konvergensiya skorlari ogʻirlikli yigʻindi orqali yakuniy TCI koʻrsatkichiga aylantirildi (4-jadval). Akademik ustuvorlik prinsipiga muvofiq qabul qilingan ogʻirliklar: $w_T = 0.40$, $w_I = 0.35$, $w_P = 0.25$.

¹ Muallif tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi strategik hujjatlari [2], [3], [34]-[37] asosida lex.uz huquqiy bazasidan hisoblangan.

4-jadval.
Yakuniy Triangulyatsion Konvergensiya Indeksi (TCI) va inklyuziya qarorlari¹

№	Yo‘nalish	T_d (0.40)	I_d (0.35)	P_d (0.25)	TCI_d	Inklyuziya qarori
1	Daromad va mulk tabaqalashuvi	0.400	0.714	0.667	0.5767	O‘rta kiritish
2	Kambag‘allik va ijtimoiy mahrumlik	0.400	0.571	0.833	0.5683	O‘rta kiritish
3	Mehnat va kasb bo‘yicha tabaqalashuv	0.250	0.571	0.833	0.5083	O‘rta kiritish
4	Ta‘lim va madaniy kapital tabaqalashuvi	0.400	0.857	0.667	0.6267	Kuchli kiritish
5	Aholi salomatligidagi tabaqaviy tafovutlar	0.250	0.857	0.833	0.6083	Kuchli kiritish
6	Avlodlararo ijtimoiy mobillik	0.300	0.143	0.667	0.3367	Shartli (maxsus asosli)
7	Hududiy infratuzilma va raqamli tabaqalashuv	0.200	0.857	1.000	0.6300	Kuchli kiritish
8	Institutsional-siyosiy va ekologik tabaqalashuv	0.200	0.571	0.667	0.4467	Shartli kiritish

Inklyuziya mezonlari va sensitivlik tahlili

Yo‘nalishlarni HITHI tarkibiga kiritish bo‘yicha qaror qabul qilish uchun to‘rt darajali baholash shkalasi qo‘llanildi: $TCI \geq 0.60$ - kuchli kiritish; $0.50 \leq TCI < 0.60$ - o‘rta kiritish; $0.30 \leq TCI < 0.50$ - shartli kiritish (qo‘shimcha asoslash bilan); $TCI < 0.30$ - kiritilmaydi.

Modelning og‘irliklarga sezgiriligini tekshirish uchun uch alternativ og‘irlik konfiguratsiyasi tahlil qilindi (5-jadval): A varianti - akademik ustuvorlik (qabul qilingan); B varianti - teng vazn; C varianti - hudud-mosroq.

5-jadval.
TCI sensitivlik tahlili: og‘irliklarning natijaga ta’siri²

№	Yo‘nalish	Variant A akademik (0.40/0.35/0.25)	Variant B teng vazn (0.33/0.34/0.33)	Variant C hudud-mosroq (0.35/0.30/0.35)	Variatsiya amplitudasi
1	Daromad va mulk	0.5767	0.5949	0.5876	0.0182
2	Kambag‘allik va mahrumlik	0.5683	0.6013	0.6031	0.0348
3	Mehnat va kasb	0.5083	0.5518	0.5506	0.0435
4	Ta‘lim va madaniy kapital	0.6267	0.6434	0.6305	0.0167
5	Aholi salomatligi	0.6083	0.6489	0.6363	0.0406
6	Avlodlararo mobillik	0.3367	0.3676	0.3812	0.0445
7	Infrastruktura va raqamli	0.6300	0.6874	0.6771	0.0574
8	Institutsional-ekologik	0.4467	0.4803	0.4748	0.0336

Sensitivlik tahlili shuni ko‘rsatadiki, og‘irliklarni o‘zgartirish TCI qiymatlarida 0.017-0.057 amplituda doirasidagi nisbatan kichik o‘zgarishlarga olib keladi. Eng muhimi - inklyuziya qarorlari (kuchli, o‘rta, shartli kategoriyalar) barcha uch og‘irlik

¹ 1-, 2- va 3-jadvallarning sintezi asosida muallif tomonidan hisoblangan.

² Muallif tomonidan TCI hisoblari asosida tuzilgan.

variantida o'zgaraydi. Bu fakt mazkur metodologik dizaynning og'irliklarga kuchli bog'liq emasligini va natijalarning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Natijalarning umumiy talqini

Triangulyatsion konvergensiya tahlili sakkiz yo'nalishning yetti tasini HITHI tarkibiga kiritish uchun yetarli ilmiy asos beradi ($TCI \geq 0.50$ yoki shartli kiritish maqomida). Yagona istisno - 6-yo'nalish (avlodlararo mobillik) bo'lib, uning past TCI ko'rsatkichi (0.337) maxsus muhokama talab etadi (5.3-bo'limga qarang).

Yo'nalishlarning iyerarxik tartibi qo'yidagi talqinlarga ishora qiladi:

a) Eng kuchli konvergensiya ($TCI \geq 0.60$) ta'lim, sog'liq va infrastruktura yo'nalishlarida qayd etildi. Bu yo'nalishlar nazariya, xalqaro standart va milliy siyosatda eng yuqori darajada uyg'unlikni namoyon etadi. Bu mantiqiy: BMTning Inson Taraqqiyoti Indeksi (HDI) [4] aynan ta'lim va sog'liqqa asoslangan, raqamli infrastruktura esa O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasining markaziy ustuvorligi hisoblanadi [36].

b) O'rta konvergensiya ($0.50 \leq TCI < 0.60$) daromad, kambag'allik va mehnat yo'nalishlarida qayd etildi. Bu yo'nalishlar metodologik jihatdan asoslangan, biroq ularning operatsionallashuvi xalqaro indekslarda ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita amalga oshiriladi (masalan, daromad tafovuti Gini koeffitsiyenti orqali, kambag'allik MPI orqali).

v) Shartli konvergensiya ($TCI < 0.50$) institutsional-ekologik yo'nalishda kuzatildi ($TCI = 0.447$). Bu natija mantiqiy: institutsional o'lchovlar (boshqaruv sifati, korrupsiya darajasi, qonun ustuvorligi) va ekologik o'lchovlar (havo va suv sifati, yer degradatsiyasi) bevosita ijtimoiy tabaqalashuvga emas, balki uning kontekstual omillariga taalluqli. Mazkur yo'nalish HITHI ga kiritiladi, lekin alohida "kontekstual o'lchov" maqomida talqin qilinadi.

Modelning og'irliklarga ishonchliligi

Sensitivlik tahlili (5-jadval) ko'rsatadiki, og'irliklarni o'zgartirish TCI qiymatlarini sezilarli darajada o'zgartirmaydi: o'rtacha amplituda 0.034 ni tashkil etadi. Eng muhimi - inklyuziya qarorlari uch og'irlik variantida bir xil bo'lib qoladi. Bu kompozit indeksni qurish bo'yicha xalqaro qo'llanmada [5] ta'kidlangan robustlik talabiga to'liq mos keladi.

Mazkur natija mazkur model dizaynidagi muhim metodologik xususiyatga ishora qiladi: uch manba mustaqil ravishda yo'nalishlarning asoslanishini tasdiqlaganda, og'irlik tanlovi natijaga ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Bu - triangulyatsiya yondashuvining asosiy konseptual afzalligi: bir manbaning kuchsizligi qolgan ikki manba tomonidan kompensatsiya qilinadi.

6-yo'nalish bo'yicha alohida muhokama

6-yo'nalish (avlodlararo ijtimoiy mobillik) $TCI = 0.337$ ko'rsatkichi bilan eng past konvergensiya ega. Lekin uni HITHI tarkibida saqlab qolish uchun to'rt nazariy va kontekstual asoslar mavjud.

Birinchi, mobillik tabaqalashuv tahlilining ikki o'lchovli yondashuvini ta'minlaydi: qolgan etti yo'nalish tabaqalashuvning hozirgi statik holatini o'lchasa, mobillik dinamik o'zgaruvchanlik darajasini baholaydi. A. Sen [13] qobiliyatlar

yondashuvda o'zlikni rivojlantirish imkoniyati konsepsiyaning markaziy elementi hisoblanadi. M. Corak [24] tomonidan empirik isbotlangan "Great Gatsby Curve" fenomeni mobillik va tengsizlik o'rtasidagi tescari bog'liqlikni ko'rsatadi.

Ikkinchidan, mazkur lo'yiha O'zbekistonning 14 hududi kesimida tabaqalashuvni baholashga yo'naltirilgan. Klassik avlodlararo mobillik tahlili (lonjityudal kuzatuvlar) o'rni, biz hudud doirasidagi mobillik dinamikasini o'lchashga yo'naltirilgan yondashuvni qabul qilamiz. R. Chetty va N. Hendren tomonidan amerikalik 20 million bola ma'lumotlari asosida isbotlanganidek [22], bolalik hududining keyingi hayotdagi muvaffaqiyatga kauzal ta'siri 60% ni tashkil etadi. Mahalliy darajadagi mobillik proksi indikatorlari sifatida quyidagilar qo'llanilishi mumkin: ichki migratsiya darajasi; yosh tadbirkorlar (15-34 yosh) ulushi; oliy ta'limga qabul koeffitsiyenti; maktab bitiruvchilarining keyingi bosqichga o'tish ulushi.

Uchinchidan, milliy strategik kontekstda "O'zbekiston-2030" strategiyasining markaziy maqsadi sifatida belgilangan "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" printsipi [2] aslida avlodlararo mobillikning bevosita ifodasidir. Strategiyaning birinchi ustuvor yo'nalishidagi 100 maqsaddan ko'pi (maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim, malaka oshirish, yoshlar tadbirkorligi) avlodlararo mobillikning amaliy dasturlarini namoyon etadi.

To'rtinchidan, akademik metodologiyaning oltin standarti tadqiqotchining o'z metodologiyasining cheklovlarini ochiqcha tan olishni talab etadi. K. Krippendorff [28] ta'kidlaganidek, kontent-tahlilda zaif manba zaifroq xulosalarni, lekin natijaning yaroqsizligini emas, balki ehtiyotkor talqin qilinishini talab etadi. Shu tariqa, 6-yo'nalish HITHI tarkibida shartli kiritish maqomi bilan saqlanadi va dissertatsiyada uning cheklovlari ochiqcha aks ettiriladi. Bu yondashuv O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining BRMM portalidagi mavjud ma'lumotlardan [39] foydalanish va kelgusida so'rovlar tashkil etish bilan kuchaytiriladi.

Modelning xalqaro va siyosiy ahamiyati

UNDP ning so'nggi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston yuqori HDI kategoriyasiga kirgan davlatlar (HDI = 0.740) qatorida 107-o'rinni egallab turibdi [38]. Mazkur darajaga erishish uchun davlat hududiy tafovutlarni qisqartirishga alohida e'tibor qaratmoqda - bu PF-158 ning birinchi va ikkinchi ustuvor yo'nalishlarida (har bir insonga sharoit yaratish va aholi farovonligi) aks ettirilgan. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan TCI modeli bu strategik vazifani ilmiy asoslangan monitoring tizimi orqali ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u: (a) Senat va Vazirlar Mahkamasiga aniq miqdoriy ko'rsatkichlar taqdim eta oladi; (b) BRMM milliy maqsadlari [3] ijrosini hudud darajasida nazorat qilish imkonini beradi; (v) hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining samaradorligini baholash uchun standart asbob bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning cheklovlari

Mazkur tadqiqotning bir nechta cheklovlarini tan olish lozim. Birinchidan, binar kodirovka usuli (0/1) ma'lum darajada soddalashtirish kiritadi: ba'zi nazariyalar

yoʻnalishni “qisman” yoki “shartli” qamrab olishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda uchlamchi (0/0.5/1) yoki uzluksiz [0,1] kodirovka usullarini sinash mumkin.

Ikkinchidan, ogʻirliklarning tanlanishi ($w_T = 0.40$, $w_I = 0.35$, $w_P = 0.25$) qisman ekspert qarori asosida amalga oshirildi. Sensitivlik tahlili natijalarni xronologik tarzda mustahkamlasa-da, kelgusi tadqiqotlarda Analytical Hierarchy Process (AHP) yoki Best-Worst Method (BWM) usullari orqali ogʻirliklarni empirik aniqlash mumkin.

Uchinchidan, manbalar toʻplami muayyan vaqt nuqtasiga qaratilgan. Yangi nazariy maktablar paydo boʻlishi, xalqaro indekslar metodologiyasining yangilanishi yoki strategik hujjatlarning qabul qilinishi modelni yangilashni talab qiladi. Mazkur masalani hal qilish uchun TCI ni davriy (3-5 yilda bir marta) qayta hisoblash tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada Hududlarning Ijtimoiy Tabaqalashuv Holat Indeksi (HITHI) yoʻnalishlarini metodologik jihatdan tanlashning yangi yondashuvi - Triangulyatsion Konvergensiya Indeksi (TCI) modeli ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari kompozit indekslar qurishda nazariy asoslanganlik, xalqaro standartlarga muvofiqlik hamda milliy strategik moslikni yagona tizimda integratsiyalash mumkinligini koʻrsatdi.

Birinchidan, triangulyatsiya prinsipi kompozit indeks metodologiyasiga miqdoriy shaklda tatbiq etildi. Uchta mustaqil manba - nazariy maktablar, xalqaro indekslar va davlat strategik hujjatlari - asosida qurilgan binar konvergensiya matritsalarini yoʻnalishlarni tanlashning shaffof, takrorlanuvchi va ilmiy asoslangan mexanizmini yaratdi. Mazkur yondashuv subyektiv ekspert baholarining taʼsirini kamaytirib, indeks tuzilmasining metodologik ishonchliligini oshirdi.

Ikkinchidan, sakkizta potensial yoʻnalish boʻyicha amalga oshirilgan hisob-kitoblar HITHI tarkibini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Taʼlim va infratuzilma yoʻnalishlari eng yuqori konvergensiya darajasini namoyon etdi va hududiy tabaqalashuvni belgilovchi ustuvor komponentlar sifatida ajralib chiqdi. Sogʻliqni saqlash yoʻnalishi ham yuqori konvergensiya kategoriyasiga kirdi. Daromad, kambagʻallik va mehnat bozori bilan bogʻliq yoʻnalishlar oʻrta konvergensiya guruhini tashkil etdi. Mobillik hamda institutsional-ekologik yoʻnalishlar esa qoʻshimcha konseptual asoslash bilan indeks tarkibiga kiritilishi mumkin boʻlgan shartli komponentlar sifatida baholandi.

Uchinchidan, sensitivlik tahlili TCI modelining matematik va metodologik barqarorligini tasdiqladi. Turli ogʻirlik kombinatsiyalarida inklyuziya natijalarining oʻzgarmasligi modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini koʻrsatdi. Bu esa taklif etilgan metodologiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham barqaror ekanligini anglatadi.

Toʻrtinchidan, model Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi strategik hujjatlari bilan uygʻun holda ishlab chiqildi. Xususan, “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi, BRM monitoring tizimi, raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish va kambagʻallikni qisqartirishga oid davlat dasturlari bilan moslik HITHI indeksining amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Bu holat indeksdan hududiy siyosat samaradorligini baholash, resurslarni

ustuvor taqsimlash va hududlararo tafovutlarni monitoring qilishda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi, HITHI indeksini O‘zbekiston Respublikasining hududiy rivojlanish monitoring tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu hududlar kesimida ijtimoiy tabaqalashuv holatini muntazam kuzatish va strategik qarorlar qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, Milliy statistika qo‘mitasi va tegishli davlat organlari tomonidan HITHI uchun zarur indikatorlar bazasini muntazam yangilab borish hamda hududiy ma‘lumotlarning ochiqligini kengaytirish tavsiya etiladi. Statistik ma‘lumotlarning to‘liqligi va sifatini oshirish indeks natijalarining aniqligini mustahkamlaydi.

Uchinchi, indeks natijalaridan davlat investitsiyalari, ijtimoiy dasturlar va infratuzilma loyihalarini hududlar kesimida ustuvorlashtirishda foydalanish mumkin. Ayniqsa, konvergensiya darajasi past hududlarga yo‘naltirilgan maqsadli siyosat hududlararo tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi, HITHI metodologiyasini Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Bu metodologiyaning xalqaro moslashuvchanligi va universalligini baholashga imkon beradi.

Beshinchi, kelgusidagi tadqiqotlarda modelni yanada takomillashtirish maqsadida uzluksiz kodlash tizimlari, Analitik Ierarxiya Jarayoni (AHP), Best-Worst Method (BWM), mashinaviy o‘rganish yondashuvlari hamda longitudinal validatsiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu indeksning prognozlash va analitik salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Mazkur tadqiqot kompozit indekslar metodologiyasi rivojiga ilmiy hissa qo‘shib, hududiy ijtimoiy tabaqalashuvni baholashning yangi integrallashgan modelini taklif etdi. Taklif etilgan TCI modeli ilmiy asoslanganligi, shaffofligi, xalqaro standartlarga mosligi va amaliy qo‘llanish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution A/RES/70/1 adopted by the General Assembly on 25 September 2015. - New York: United Nations, 2015. - URL: <https://sdgs.un.org/2030agenda>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-5870397>

4. UNDP. Human Development Report 2025: A matter of choice - People and possibilities in the age of AI. - New York: United Nations Development Programme, 2025. - URL: <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2025>

5. OECD, European Commission JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide / Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S., Hoffmann A., Giovannini E. - Paris: OECD Publishing, 2008. - 162 p. - ISBN 978-92-64-04345-9. - DOI: <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>
6. Denzin N. K. The Research Act: A Theoretical Introduction to Sociological Methods. - Chicago: Aldine Publishing, 1978. - 368 p. - ISBN 978-0-202-30215-4.
7. Marx K. Das Kapital. Kritik der politischen Ökonomie. Bd. 1. - Hamburg: Otto Meissner, 1867. - 784 S.
8. Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft: Grundriss der verstehenden Soziologie. - Tübingen: Mohr Siebeck, 1922. - 945 S.
9. Wright E. O. Classes. - London: Verso, 1985. - 343 p. - ISBN 978-0-86091-104-9.
10. Erikson R., Goldthorpe J. H. The Constant Flux: A Study of Class Mobility in Industrial Societies. - Oxford: Clarendon Press, 1992. - 429 p. - ISBN 978-0-19-827392-1.
11. Standing G. The Precariat: The New Dangerous Class. - London: Bloomsbury Academic, 2011. - 198 p. - ISBN 978-1-84966-352-6.
12. Piketty T. Capital in the Twenty-First Century. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. - 696 p. - ISBN 978-0-674-43000-6.
13. Sen A. Development as Freedom. - Oxford: Oxford University Press, 1999. - 366 p. - ISBN 978-0-19-289330-7.
14. Haq M. ul. Reflections on Human Development. - New York: Oxford University Press, 1995. - 288 p. - ISBN 978-0-19-510193-5.
15. Townsend P. Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living. - Harmondsworth: Penguin Books, 1979. - 1216 p.
16. Alkire S., Foster J. Counting and multidimensional poverty measurement // Journal of Public Economics. - 2011. - Vol. 95, No. 7-8. - P. 476-487. - DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2010.11.006>
17. Bourdieu P. The forms of capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education / ed. J. Richardson. - New York: Greenwood Press, 1986. - P. 241-258.
18. Coleman J. S. Social capital in the creation of human capital // American Journal of Sociology. - 1988. - Vol. 94, Supplement. - P. S95-S120. - DOI: <https://doi.org/10.1086/228943>
19. Marmot M. The Health Gap: The Challenge of an Unequal World. - London: Bloomsbury Publishing, 2015. - 400 p. - ISBN 978-1-4088-5799-6.
20. Wilkinson R., Pickett K. The Spirit Level: Why More Equal Societies Almost Always Do Better. - London: Allen Lane, 2009. - 331 p. - ISBN 978-1-84614-039-6.
21. Chetty R., Friedman J. N., Hendren N., Jones M. R., Porter S. R. The Opportunity Atlas: Mapping the Childhood Roots of Social Mobility // American Economic Review. - 2026. - Vol. 116, No. 1. - P. 1-51. - DOI: <https://doi.org/10.1257/aer.20200108>

22. Chetty R., Hendren N., Kline P., Saez E. Where is the Land of Opportunity? The Geography of Intergenerational Mobility in the United States // Quarterly Journal of Economics. - 2014. - Vol. 129, No. 4. - P. 1553-1623. - DOI: <https://doi.org/10.1093/qje/qju022>
23. Solon G. Intergenerational mobility in the labor market // Handbook of Labor Economics. Vol. 3A / eds. O. Ashenfelter, D. Card. - Amsterdam: Elsevier, 1999. - P. 1761-1800.
24. Corak M. Income inequality, equality of opportunity, and intergenerational mobility // Journal of Economic Perspectives. - 2013. - Vol. 27, No. 3. - P. 79-102. - DOI: <https://doi.org/10.1257/jep.27.3.79>
25. Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge, MA: MIT Press, 1991. - 156 p. - ISBN 978-0-262-11159-6.
26. Acemoglu D., Robinson J. A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. - New York: Crown Publishers, 2012. - 544 p. - ISBN 978-0-307-71921-8.
27. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. - London: Sage, 1992. - 260 p. - ISBN 978-0-8039-8345-8.
28. Krippendorff K. Content Analysis: An Introduction to Its Methodology. 2nd ed. - Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2004. - 413 p. - ISBN 978-0-7619-1545-4.
29. UNDP & OPHI. Global Multidimensional Poverty Index 2024: Poverty amid conflict. - New York: UNDP; Oxford: OPHI, 2024. - URL: <https://hdr.undp.org/content/2024-global-multidimensional-poverty-index-mpi>
30. OECD. How's Life in Your Region? Measuring Regional and Local Well-being for Policy Making. - Paris: OECD Publishing, 2014. - URL: <https://www.oecdregionalwellbeing.org/>
31. European Commission. EU Regional Competitiveness Index 2.0: 2022 edition / Dijkstra L., Papadimitriou E., Martinez B. C., Hippe R., Annoni P. - Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023. - DOI: <https://doi.org/10.2776/46106>
32. European Commission. EU Regional Social Progress Index 2024. - Brussels: DG Regional and Urban Policy, 2024. - URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/maps/social-progress_en
33. UN-Habitat. City Prosperity Index: Global City Prosperity Initiative. - Nairobi: United Nations Human Settlements Programme, 2023. - URL: <https://unhabitat.org/city-prosperity-initiative>
34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>
35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmoni <https://www.lex.uz/uz/docs/-7109857>

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-4096197>

38. Caspian Post. Uzbekistan Places 107th in Latest Human Development Index. - May 16, 2025. - URL: <https://caspianpost.com/uzbekistan/uzbekistan-places-107th-in-latest-human-development-index>

39. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Barqaror rivojlanish maqsadlari milliy ko‘rsatkichlari portali <https://nsdg.stat.uz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**